



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




***Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-iyul***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi***

Тел. 71-202-80-44 (45)

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyul oyi, foizda)




2024- yil 1- avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 89 035 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 323 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 88 712 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-iyul, mlrd. so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023- 2024- yillar)



2024- yilning yanvar-iyul oyida o'sish sur'ati **108,9 %** ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-iyul oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 185 549,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 108,9 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 32 972,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,5%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 152 577,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,6%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 19 732,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,4 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyul oyı)

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	185 549,2	108,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 236,1	108,1
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	12 760,9	109,0
Buxoro	10 153,3	108,4
Jizzax	5 187,5	108,2
Qashqadaryo	12 653,3	108,2
Navoiy	7 051,4	109,2
Namangan	11 765,3	110,3
Samarqand	16 663,7	108,1
Surxondaryo	12 046,3	108,8
Sirdaryo	2 898,7	105,9
Toshkent	17 108,4	110,0
Farg'ona	15 147,4	108,5
Xorazm	7 281,9	107,6
Toshkent sh.	48 595,0	109,0

2024- yilning yanvar-iyul oyida 2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan respublikaning Namangan (110,3 %), Toshkent (110,0 %) va Navoiy (109,2 %) viloyatlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 26,2 % bilan 48 595,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Sirdaryo viloyati 1,6 % bilan 2 898,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm

Toshkent sh.	48 595,0
Toshkent	17 108,4
Samarqand	16 663,7
Farg'ona	15 147,4
Andijon	12 760,9
Qashqadaryo	12 653,3
Surxondaryo	12 046,3
Namangan	11 765,3
Buxoro	10 153,3
Xorazm	7 281,9
Navoiy	7 051,4
Qoraqalpog'iston Resp.	6 236,1
Jizzax	5 187,5
Sirdaryo	2 898,7



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-iyul oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 152 577,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 8,6 % ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,2 % ni tashkil etdi.

108,7 %

Namangan

109,1 %

Qoraqalpog'iston Resp.

109,1 %

Navoiy

110,0 %

Toshkent

110,3 %

Xorazm

114,0 %

Samarqand

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 10,5 % ga o'sdi va 32 972,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 17,8 % ulushiga to'g'ri keldi.

110,7 %

Navoiy

112,1 %

Toshkent sh.

116,1 %

Surxondaryo

124,7 %

Buxoro

125,0 %

Andijon

135,5 %


Namangan

138,8 %

Farg'ona




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi (97,0 %), Surxondaryo (96,8 %) va Xorazm (96,2 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 17,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahri (44,0 %), Samarqand (14,5 %), Toshkent (14,4 %) va Farg'ona (10,5 %) viloyatlarida kuzatildi.

17,8 %

82,2 %



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda)

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi**

3 104,3

Farg'ona

3 712,5

Andijon

3 742,9

Xorazm

3 636,6

Buxoro

4 950,6

Toshkent sh.

15 891,1

Jizzax

3 425,0

Qashqadaryo

3 537,0

Navoiy

6 528,5

Namangan

3 819,3

Samarqand

3 940,5

Surxondaryo

4 165,0

Sirdaryo


3 157,6

Toshkent

5 580,8

2024- yilning yanvar-iyul oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 5 019,3 ming so'm (2023- yilning yanvar- iyul oyiga nisbatan 106,7 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (15 891,1 ming so'm), Navoiy (6 528,5 ming so'm) va Toshkent (5 580,8 ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyul), foizda




Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o‘shish sur‘atlari
(2024- yil yanvar-iyul)


	Jami, mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- iyul oyiga nisbatan, foizda
O‘zbekiston Respublikasi	19 732,8	113,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	840,7	116,6
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	2 073,5	114,4
Buxoro	1 297,7	115,4
Jizzax	1 361,9	110,1
Qashqadaryo	1 649,1	107,0
Navoiy	506,8	117,8
Namangan	1 960,1	113,7
Samarqand	1 613,9	106,5
Surxondaryo	2 508,7	117,0
Sirdaryo	320,3	109,7
Toshkent	1 443,7	110,0
Farg‘ona	1 355,4	118,8
Xorazm	1 425,6	111,8
Toshkent sh.	1 375,5	122,5

* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;
 – jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2024- yil yanvar-iyul)**



**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2024- yil yanvar-iyul)**



Respublika bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyul oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 19 732,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 113,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 9 985,2 mlrd. so'mni (119,3 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 9 747,6 mlrd so'mni tashkil etdi (108,0 %).

2024-yilning yanvar-iyul oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 9 985,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (4 591,6 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 4 591,6 mlrd. so'm  46,0 %	Non va non mahsulotlari 1 217,7 mlrd. so'm  12,2 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 1 026,7 mlrd. so'm  10,3 %
Tovuq go'shti 465,5 mlrd. so'm  4,7 %	Qurtilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 486,2 mlrd. so'm  4,9 %	Tuxum 360,3 mlrd. so'm  3,6 %
Ziravorlar 347,4 mlrd. so'm  3,5 %	Sut va sut mahsulotlari 411,6 mlrd. so'm  4,1 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 253,4 mlrd. so'm  2,5 %
Tuzlamalar 231,0 mlrd. so'm  2,3 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 164,5 mlrd. so'm  1,6 %	Nooziq-ovqat tovarlar 423,6 mlrd. so'm  4,2 %

2024- yilning yanvar-iyul oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 9 747,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 7 706,7 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 1 607,8 mlrd. so'mni, otlar – 277,1 mlrd. so'mni, parrandalar – 38,0 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 4 547,1 mlrd. so'm  47,2 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 1 846,9 mlrd. so'm  19,2 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 1 312,3 mlrd. so'm  13,6 %
Qo'ylar 1 389,9 mlrd. so'm  14,4 %	Otlar 277,1 mlrd. so'm  2,9 %	Echkilar 218,8 mlrd. so'm  2,3 %
Kurka, o'rdak, g'oz 21,4 mlrd. so'm  0,2 %	Tovuqlar 14,1 mlrd. so'm  0,1 %	Quyionlar 1,8 mlrd. so'm  0,02 %
Qushlar 0,7 mlrd. so'm  0,01 %		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 25 077 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 81 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 24 996 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyul)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyul oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	10 381,4	110,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	217,8	108,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	240,6	107,9
Buxoro	442,0	108,5
Jizzax	199,2	109,0
Qashqadaryo	338,1	107,7
Navoiy	317,6	108,4
Namangan	335,6	108,1
Samarqand	768,1	108,2
Surxondaryo	301,4	106,2
Sirdaryo	107,5	111,4
Toshkent	844,4	108,7
Farg'ona	396,3	107,0
Xorazm	235,5	109,7
Toshkent sh.	5 637,2	112,8

2024- yilning yanvar-iyul oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 10 381,4 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 74,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
O'zbekiston Respublikasi	61 533,3	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 367,3	2,2
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3 089,8	5,0
Buxoro	2 477,8	4,0
Jizzax	6 432,6	10,5
Qashqadaryo	2 008,6	3,3
Navoiy	2 234,8	3,6
Namangan	2 087,9	3,4
Samarqand	2 313,2	3,8
Surxondaryo	865,1	1,4
Sirdaryo	300,8	0,5
Toshkent	3 275,7	5,3
Farg'ona	3 039,3	4,9
Xorazm	3 054,4	5,0
Toshkent sh.	28 986,0	47,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (28 986,0 mlrd. so'm), Jizzax (6 432,6 mlrd. so'm) va Toshkent (3 275,7 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-iyul oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 61 533,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,2 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 25 441,0 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 143,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 36 092,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 103,6 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Respublika bo‘yicha 2024- yilning yanvar-iyul oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 179 297,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,1 % ga o‘sd.

Savdo aylanmasi va ulushi

28,2 %

50 574,9 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

71,8 %

128 722,7 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik
korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 128 722,7 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,3 % ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 71,8 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyul)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyul oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	179 297,6	110,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 652,4	113,7
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	4 583,5	109,6
Buxoro	7 069,9	105,9
Jizzax	2 361,5	153,3
Qashqadaryo	3 447,6	106,3
Navoiy	2 005,9	110,3
Namangan	6 801,2	111,6
Samarqand	12 043,3	124,4
Surxondaryo	3 371,6	105,5
Sirdaryo	2 510,2	105,4
Toshkent	19 700,8	113,7
Farg'ona	10 006,8	108,0
Xorazm	3 812,2	104,3
Toshkent sh.	98 930,7	107,4

2024- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 46 742 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 340 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 46 402 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (178,6 %), Samarqand (165,0 %) va Jizzax (159,2 %) viloyatlarida kuzatildi.